



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасва Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридиневич
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Лазизахон Алиджанова БЕРУНИЙНИНГ ҚИЁСИЙ ДИНШУНОСЛИККА ОИД ИЛМИЙ ЁНДАШУВИ.....	5
2. Шоҳрух Гулбаев ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ТЎХОРИСТОН.....	9
3. G‘ulom Djumamurotov XVIII ASR VA XIX ASR BOSHLARIDA QORAQALPOQLARNING O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA ROSSIYA BILAN SIYOSIY VA IQTISODIY ALOQALARI.....	13
4. Bahodir Isakov O‘ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY MEROSNING O‘RNI.....	20
5. Parvina Ismoilova TURKISTONGA RUS BANKLARINING KIRIB KELISHI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI).....	24
6. Икрамжон Исмаилов ЎЗБЕКИСТОНДА ХАЛҚАРО АНДОЗАЛАРГА МОС КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ БОРАСИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй.).....	29
7. Парвиз Магеррамов ВЗАИМООТНОШЕНИЯ АЗЕРБАЙДЖАНА СО СТРАНАМИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ОБЛАСТИ ТРАНСПОРТА.....	37
8. Sayyora Turayeva XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON MINTAQASIDA XORIJIY JAMIYATLARINING KONCHILIK SOHASIGA KIRIB KELISHI TARIXIDAN.....	44
9. Дмитрий Епифанов ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ ПО ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА НА ПРИМЕРЕ CHATGPT.....	55
10. Зебунисо Саидова ЎЗБЕКИСТОНДА АҲОЛИ ЁШ-ЖИНСИЙ ТАРКИБИ ДИНАМИКАСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР).....	65
11. Nishona Hasanova MARKAZIY OSIYODA BOG‘-XIYOBON SAN’ATI VA CHORVACHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI.....	74
12. Ўткиржон Хошимов ҚАЙТА ҚУРИШ ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОН ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ИЛМ-ФАН СОҲАЛАРИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР.....	79



Nishona Normurotovna Hasanova,
tayanch doktorant,
Buxoro davlat universiteti

MARKAZIY OSIYODA BOG‘-XIYOBON SAN‘ATI VA CHORVACHILIKNING RIVOJLANISH TARIXI

For citation: Nishona N.Hasanova. THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF GARDEN ART AND ANIMAL HUSBANDRY IN CENTRAL ASIA. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 3, pp.74-78

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132848>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada manzarali daraxtlar va chorvaga ozuqabop yangi ekin navlarining yaratilish tarixi haqida so‘z boradi. Xususan, So‘g‘diyona, Baqtriya va Xorazm hududlarida qadimdan bog‘dorchilik madaniyati shakllangani, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda mashhur bog‘lar barpo etilgani ta‘kidlangan. Amir Temur davrida bog‘ yaratish an‘analari rivojlanishi, turli manzarali va mevali daraxtlar ekilgani qayd etilgan. Bundan tashqari, maqolada manzarali o‘simliklarning ahamiyati, ularning shahar va qishloq muhitini yaxshilashdagi roli, estetik va ekologik foydalari ta‘kidlangan. Shuningdek, yem-xashak ekinlarining chorvachilikda tutgan o‘rni, ularning turlari va yetishtirish texnologiyalari haqida ham ma‘lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘simliklar, meva daraxt, chorva ozuqasi, sabzavotchilik, issiqxona, mahalliy seleksiya, kartoshkachilik, dehqonchilik, poliz ekinlari.

Нишона Нормуротовна Хасанова,
докторант,
Бухарский государственный университет

ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ САДОВО-ПАРКОВОГО ИСКУССТВА И ЖИВОТНОВОДСТВА В СРЕДНЕЙ АЗИИ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается история создания новых сортов декоративных деревьев и кормовых культур для скота. В частности, подчеркивается, что в регионах Согдианы, Бактрии и Хорезма с древнейших времен формировалась садоводческая культура, а в таких городах, как Самарканд, Бухара и Хива, были заложены знаменитые сады. Отмечается, что в период правления Амира Темура развивались традиции создания садов, высаживались различные декоративные и плодовые деревья. Кроме того, в статье подчеркивается важность декоративных растений, их роль в улучшении городской и сельской среды, а также их эстетические и экологические преимущества. Также, была предоставлена информация о роли кормовых культур в животноводстве, их видах и технологиях выращивания.

Ключевые слова: растения, фруктовые деревья, корма для животных, овощеводство, теплицы, местная селекция, выращивание картофеля, земледелие, бахчевые культуры.

Nishona N. Hasanova,
doctoral student,
Bukhara State University

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF GARDEN ART AND ANIMAL HUSBANDRY IN CENTRAL ASIA

ANNOTATION

This article discusses the history of the creation of ornamental trees and new varieties of crops for livestock. In particular, it is noted that the culture of gardening has been formed in the regions of Sogdiana, Bactria and Khorezm since ancient times, and famous gardens were established in cities such as Samarkand, Bukhara, and Khiva. The development of garden traditions and the planting of various ornamental and fruit trees during the reign of Amir Temur are noted. In addition, the article emphasizes the importance of ornamental plants, their role in improving the urban and rural environment, their aesthetic and ecological benefits. It also provides information on the role of fodder crops in livestock farming, their types and cultivation technologies.

Index Terms: plants, fruit trees, animal feed, vegetable growing, greenhouses, local selection, potato growing, farming, melon cultures.

1. Dolzarbligi:

Ma'lumki Markaziy Osiyoda bog'-xiyobon san'ati ko'p asrlilik tarixga ega. Eramizdan 6-7 asr oldin Murg'ob, Zarafshon va Amudaryo vodiylari hududida So'g'diyona, Baqtriya va Xorazm kabi o'lkalar mavjud bo'lib, ular shimoliy-g'arbiy tomondan Hindiston, Eron, Qoshg'ar, Janubiy Xitoy bilan qadimdan umumiy savdo yo'li orqali bog'lanib kelgan. XII asr o'rtalarida O'rta Osiyoga tashrif buyurgan Marko Polo shunday deb yozadi: Samarqand g'aroyib bog'lar bilan bog'lab olingan buyuk shahar, uni tekisliklar o'rab turadi, unda turli mevali o'simliklar o'sadi". XII-XII asrlarda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva kabi tarixiy shaharlarimizda ajoyib va ko'rkam ko'rinishdagi bog'larimiz bo'lgan [1, B.12]. Bu bog'larda mahalliy daraxt va buta turlari bilan bir qatorda o'zga yurtlardan Hindiston, Eron, Misr, Arab davlatlaridan manzarali yaproq va nina bargli, shuningdek mevali daraxt ko'chatlari keltirilib dunyoga mashhur Samarqanddagi Bog'i Shamol, Bog'i Eram, Bog'i Dilkusho, Bog'i Behisht va boshqa bog'lar, guzarlar barpo etilgan.

2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Chorvachilikning rivojlanishi bilan bog'liq holda, ozuqabop ekinlarning ekilishi va seleksiya jarayonlari turli davrlarda o'rganilgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya va Markaziy Osiyo hududlarida chorva uchun maxsus o'simliklarning yetishtirilganligi haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda keltirilgan (Jacobsen va Adams, 1958). Sovet davrida Markaziy Osiyo chorvachiligi va yem-xashak yetishtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar (Kudryavtsev, 1976) ozuqabop ekinlarning hududiy iqlim sharoitiga moslashuvi va ularning hosildorligi haqida muhim ma'lumotlarni taqdim etgan. O'zbekistonda bog'dorchilik va chorvachilik tarixiy jihatdan muhim sohalardan biri bo'lib, bu borada qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Buyuk ipak yo'li orqali turli ekin navlari va daraxt turlari mintaqaga olib kelinganligi haqida tarixiy hujjatlar va manbalarda ma'lumotlar mavjud (Bregel, 2003). Zamonaviy tadqiqotlar (Xolmurodov, 2015) ekin navlarining adaptatsiya jarayonlari va ularning ekologik ahamiyatiga urg'u beradi. Yevropa va Osiyo bo'ylab olib borilgan arxeobotanik tadqiqotlar (Smith et al., 2008) manzarali daraxtlarning qadimgi sivilizatsiyalar tomonidan keng qo'llanilganini tasdiqlaydi.

"Boburnoma"da keltirilishicha, dunyoga mashhur Amir Temur bog' va xiyobonlarida chinor, qayrag'och, tol va teraklar bilan birga chetdan keltirilgan eman, sarv, shamshod kabi daraxtlar ham ekilgan. Ularning ba'zilar hozirgacha saqlanib qolgan. Samarqand atrofidagi Konigil, Motrid, Chilustun mavzolari va Urgutdagi chinorlari uzoq yillik o'tmishga guvoh tirik yodgorliklardir. Samarqandning maxsus reja asosida obodonlashtirilishi va ko'kalamzorlashtirilishi XIX asrning

oxirgi choragiga to'g'ri keladi. Bog'bon olim N Korolkov Yevropa shaharlarining tajribasini o'rganib, Samarqand sharoitiga mos 100 turga yaqin manzarali, sersoya va uzoq umr ko'radigan nodir daraxt va butalarni ekishni tavsiya etgan [2, B.35]. Bu ish XIX asrning oxirlarida amalga oshirilgan. Xuddi shu yillarda hozirgi universitet xiyoboni Alisher Navoiy nomidagi shahar markaziy istirohat bog'i tashkil etilgan hamda Omonqo'ton o'rmon xo'jaligiga asos solingan. Samarqandning yangi shahar qismi qurilib nodir daraxtlar ekilib, ko'kalamzorlashtirilgan. O'sha davrda ekilgan daraxt turlaridan o'ttizga yaqini hozirgacha saqlangan qolganlari turli yillarda yo'qolib ketgan. Shu kunga yaqin saqlangan daraxtlar 140-150 yoshli asriy nodir daraxtlar bo'lib, tabiiy botanik yodgorlik hisolanadi. Manzarali o'simliklar, dekorativ o'simliklar kishilarning estetik ehtiyojlarini qondirishda foydalaniladigan turli botanik oilalarga mansub madaniy va yovvoyi o'simliklar guruhi.

Manzarali o'simliklar shahar va qishloqlarni ko'kalamzorlashtirish, istirohat bog'lari, ijtimoiy, ishlab chiqarish binolari va turar joylarni bezatish uchun o'stiriladi. Chiroyi, barglari, gullari, mevalari, rangi, tanasining ajoyib shakllari bilan tavsiflanadi. Biz qator belgilari masalan: hayot shakliga ko'ra-daraxtlar, butalar, chala butalar, o't o'simliklarga poyasi shakliga ko'ra tik o'sadigan, ilashib o'sadigan, yoyilib o'sadigan, osilib o'sadigan va boshqalarga bo'linadi. Manzarali o'simliklar biologik xususiyatlari hamda agrotexnika talablariga qarab: daraxt va butalarga, ko'p yillik, ikki yillik, bir yillik, boshqoq, piyozli va boshqa guruhlarga bo'linadi. Shahar va qishloqlarimizning ko'rkam qiyofada ko'rinishida albatta manzarali daraxt va butalarning ahamiyati kattadir [3, B.27]. Ularning asosiy qismini yapon saforasi, sharq tuyasi, qrim qarag'ayi, majnuntol, hind sireni, amerika zarangi, sliva, archalar, chinor, eman kabi daraxt va butalar tashkil qiladi. Bularning aksariyati tez o'suvchi, sersoya va xushmanzarali daraxtlardir. Shuningdek keyingi yillarda ko'p yillik daraxtlar-dub, zarang, shamshod kabi daraxtlarni ko'paytirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki bu o'simlik va daraxtlar tabiiy muhitni mo'tadillashtirib, havoni zaharli gaz va tutunlardan filtrlash bilan birga shaharlarimizning ko'rkiga ko'rk qo'shadi.

3. Tadqiqot natijalari:

Daraxtlarning har biri o'ziga xos ekotizim bo'lib, ular bizga g'amxo'rlik qilganidek biz ham ularga g'amxo'rlik ko'rsatishimiz lozim. Daraxtlar va o'simliklar barchamiz uchun juda muhim. Daraxtlarning ahamiyati shundaki bu ajoyib o'simliklarsiz sayyora cho'lga aylanadi. Daraxtlar xlorofillni o'z ichiga olgan barcha o'simliklar singari fotosintezni amalga oshiradi. Daraxtlar tabiatning ajralmas bo'lagi, zamining nafas tizimidir. Shahrimizning beqiyos tarixiy yodgorliklari kabi ular ham sayyohlarni o'ziga jalb etuvchi tabiat durdonalaridir. Uzoq umr ko'rishi bilan alohida ajralib turadigan ikki bo'lakli ginkgo daraxti ming yilgacha yashaydi. Samarqand shahrida uning 150 yoshli ikki tupi o'sadi. Ulardan biri SamDU biologiya fakulteti hovlisida, ikkinchisi shahar hokimiyati binosi hovlisida joylashgan. Ikki bo'lakli ginkgo mevali daraxt sifatida foydalaniladi, barglari dorivor xususiyatga ega. Minus 20-25° sovuqqa chidaydi. Bundan tashqari botqoq sarvi – bo'yi 40 metrga, tana aylanasi 3 metrgacha yetadigan kuzda barglarini to'kuvchi ajoyib manzarali daraxt hisoblanadi. Botqoqlikda, daryo, ko'l bo'ylarida o'sadi, qoziqsimon havoyi yer usti ildizlar hosil qiladi. 1874-yilda ekilgan.

Hozirda shahar markaziy istirohat bog'idagi ko'l hududida 5 tupi o'sib turibdi. Sovuqqa chidamli, -25° da ham deyarli zararlanmaydi. SamDU biologiya fakulteti hovlisida 34 yoshli tupi o'smoqda. Virjini archasining yana bir nomi – Qalam daraxt doimo yashil tusda bo'lishi bilan e'tiborlidir. 1873-yilda ekilgan. Hozirda shahar markaziy istirohat bog'idagi Mo'jiza amfiteatri atrofida, temiryo'l vokzali hududidagi shifoxona binosi yonida shahar hokimiyati hovlisida va universitet xiyobonida o'nlab asriy tuplari saqlangan. Yurakbarg juka – manzarali daraxti Samarqand shahriga 1875-1878-yillarda keltirilgan. Bir nechta asriy tuplari Samarqandning Amir Temur, Mahmud Qoshg'ariy ko'chalarida, SamDU bosh binosi hovlisida, shahar istirohat bog'ida o'sib turibdi. Qo'ng'ir eman – 300-400 yil yashaydigan daraxt. Samarqandda 1874-yilda ekilgan. Hozir shaharda o'nlab asriy tuplari o'sib turibdi. Ular SamDU bosh binosi va biologiya fakulteti hovlisida, Abdurahmon Jomiy, O'zbekiston, Ibn Xoldun, Alisher Navoiy ko'chalaridagi hovlilarda saqlangan. O'zbekiston hududida yoshi 100 va undan ortiq bo'lgan 4600 dan ortiq daraxtlar bor.

Ularning ko'pchiligi Toshkent viloyatining tog'li hududlarida o'sadi va asosan archalardan iborat. Asriy daraxtlar topilmagan yagona viloyat Sirdaryo bo'ladi.

Mamlakatning qolgan qismlarida 16 turdagi "qariya" daraxt turlari, jumladan, chinor, eman, yong'oq, nok va hatto baobab ham o'smoqda. Bulardan Buxoro viloyatida 87 tup, Navoiy viloyatida 33 tup, Samarqand viloyatida esa 24 tup ko'p asrlik daraxtlar mavjud.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-dekabrda "Mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, 2020-yil hosili uchun qishloq xo'jalik ekinlarini oqilona joylashtirish va mahsulot yetishtirishning prognoz hajmlari to'g'risida"gi 1025-qarorida joriy yilda takroriy ekin ekiladigan 777 634 gektar maydonlarning 199 111 gektariga yoki 26 foiziga ozuqabop ekinlar ekilishi ko'zda tutilgan. Chorvador fermerlarimiz g'alla hosili yig'ib olingan maydonlarga takroriy ekin sifatida ozuqabop ekinlarni ekishda boy tajriba to'plagan. Bu ishni kechiktirmasdan o'z vaqtida amalga oshirish natijasida qishloviga ozuqa jamlanadi [5, B.41]. 2022-yil 8-fevralda Prezidentning "Chorvachilikni yanada rivojlantirish va chorva ozuqa bazasini mustahkamlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Chorva ozuqasi uchun takroriy ekin sifatida asosan makkajo'xori, xashaki no'xat, tariq va xashaki lavlagining ertapishar navlari ekiladi. Yem-xashak ekinlari chorva mollari va parrandalarga yem-xashak (ko'kat, pichan, yem, silos) tayyorlash maqsadida ekiladigan o'simliklardir. Yem-xashak ekinlariga bir yillik va ko'p yillik o'tlar, xashaki ildizmevali, kartoshkali o'simliklar, xashaki poliz ekinlari, shirin kartoshka, silos bostirish va yem uchun ekiladigan donli ekinlar kiradi. Hozir jadallashgan dehqonchilik tizimi sharoitida yem-xashak ekinlari yetishtirish mustaqil tarmoq bo'lib ajratiladi va yem-xashakchilik deb ataladi [2, B.47]. Yem-xashak ekinlarining eng katta guruhini ko'p yillik o'tlar: dukkaklilar – sebarga, beda, shabdar, bersim, espaset, qashqarbeda, oq nilufar va g'alladoshlar, ajriqbosh, suvbug'doyiq, oqso'xta, erkao't tashkil qiladi. Ko'p yillik o'tlar sof holda va aralash ekiladi. Ular yaylov ozig'i sifatida hamda ko'k massasi senaj, silos, o't uni donador ozuq va briketlar tayyorlash uchun ishlatiladi. Bu yem-xashak ekinlari (oqsilga ayniqsa – dukkaklilar) vitaminlarga va mineral tuzlarga boy bo'ladi. O'zbekistonning quruq iqlimli rayonlarida qurg'oqchilikka chidamli bir yillik o'tlar – sudano't, oq jo'xori, shuningdek, burchoq ekiladi.

Xashaki lavlagi – ozuqabop ekinlar orasida ildizmevalardan, asosan, ushbu o'simlik ekiladi. Chorva mollari sut mahsuldorligini oshirishda hashaki lavlagining ahamiyati katta hisoblanadi. Hashaki lavlagi shirali, yengil hazm bo'ladigan va to'yimli yem-xashak xususiyatiga ega. Takroriy ekin sifatida lavlagining "O'zbekiston nimqand", "O'zbekiston-83" navlarini ekish tavsiya etiladi. Yana bir chorvaga ozuqabop mahsulot makkajo'xoridir. Makkajo'xori ko'p tarmoqli foydalanishda qimmatli, serhosil, donli ekin hisoblanadi. Makkajo'xoridan yaxshi konsentrat, ko'k massa va silos olish mumkin [2, B.56]. Bir kilogramm donida 1,34 ozuqa birligi mavjud. Makkajo'xori so'talari sut-mum pishirish davriga kirganda tayyorlangan silos chorva mollari uchun eng yaxshi ozuqadir. Takroriy ekin sifatida makkajo'xorining ertapishar "Qorasuv-350 AMV", "O'zbekiston-300 MV", "O'zbekiston-306 MV" kabi duragaylaridan to'liq pishgan don olish uchun 20-25-iyungacha ekish tavsiya etiladi.

Tariqni ekin sifatida ekish ham muhim ahamiyatga ega. Uni bug'doy bahorda erta ekinlardan bo'shagan maydonlarga iyun oyida va iyulning boshlarida ekish mumkin. Takroriy ekin sifatida tariqning "Saratovskaya-853" navi tavsiya etiladi. Tariqning doni, ayniqsa, parrandalar uchun qimmatbaho ozuqa hisoblanadi. Tariq serhosil o'simlik bo'lib, 10 sotix yerdan 5-6 sentner don yoki 12-14 sentner ko'k massa olish mumkin. Ushbu ekin turi qurg'oqchilikka chidamli yorug'sevlar qisqa muddatli o'simlik hisoblanadi. Pishgan doni tez to'kilishi sababli 70-75 foiz yetilganda o'rib olish zarur.

4. Xulosalar:

Manzarali daraxtlar va chorvachilik uchun ozuqabop ekinlarning joriy etilishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, u turli madaniy va ilmiy omillar ta'sirida shakllangan. Ushbu o'simliklarning iqlimga moslashtirilishi, inson ehtiyojlari uchun qo'llanilishi va ekologik barqarorlikka ta'siri haqida qadimdan ilmiy izlanishlar olib borilgan. O'zbekistonda va Markaziy Osiyoda bu jarayonlar bog'dorchilik, chorvachilik va qishloq xo'jaligi taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Ilmiy

adabiyotlar va tarixiy manbalar asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mazkur mavzuni yanada kengroq o'rganish va zamonaviy qishloq xo'jaligi ehtiyojlariga mos ravishda tadqiq qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Sanayev S., Amonturdiyev I., Saparniyazov I. "Ertagi muddatga makkajo'xoridan yuqori hosil olish texnologiyasi" // "O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi" jurnali 2020-yil 3-mart. №3.
2. Berdiyev E., Gulamxodjayeva Sh. "Manzarali daraxtlarni ko'paytirish". Toshkent. O'quv qo'llanma. 2020.
3. Haydarov X. "Samarqandning noyob daraxtlari haqida nimalarni bilamiz" www.samdu.uz
4. Nosirov N. "Daraxtlar muhim" uznature.uz
5. Balashev N.I., Zemon G.O. Sabzavotchilik. – Toshkent, - 1977.
6. Ayupov R. "Bodring yetishtirish va qayta ishlash" nashriyot: Iqtisod moliya, 2007 yil
7. Jacobsen, T., Adams, R. (1958). Salt and Silt in Ancient Mesopotamian Agriculture. Science, 128(3334), 1251-1258.
8. Karimov Sh. (2015). O'zbekiston bog'dorchiligi tarixi. Toshkent: Fan.
9. Kudryavtsev S. (1976). Pasture and Forage Crops of Central Asia. Moscow: Nauka.
10. Smith, W., Jones, A., & Brown, P. (2008). Archaeobotany and the Study of Ancient Landscapes. Cambridge University Press.
11. To'raqulov, S., G'ulomov, I., Xolmurodov, Sh., & Ergashev, B. (2010). O'zbekistonning qishloq xo'jaligi va ekin navlari tarixi. Toshkent: Universitet nashriyoti.

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 3 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 3

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000